

## BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI (ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANI MISOLIDA)

**Madaminova Dilnura Bahodir qizi**

Urganch davlat universiteti 2-bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanidagi badiiy obrazlar tahlil qilinadi. Shuningdek asarning mohiyati, kompozitsiyasi, boblari, yozuvchi mahorati, obrazlar, tarixiy voqealar haqida so’z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** Badiiy obraz, Navoiy, Husayn Boyqaro, epizodik obrazlar, badiiy obraz va inson.

Badiylik — san’atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri — badiiy obrazdir. Adabiyotshunoslik ilmining kuzatishlariga ko‘ra obraz yaratishning ikki yo‘li mavjud:

1. Jamlash yo‘li bilan obraz yaratish;
2. Prototip asosida badiiy obraz yaratish;

Jamlash yo‘li bilan obraz yaratish haqida to‘xtalib o‘tirmaymiz. Demak, prototip (yunon. protos — ilk, dastlabki; tupos — namuna, nishona) — badiiy obraz uchun asos, nuqta bo‘ladi. Hayotda mavjud bo‘lgan tarixiy yoki zamondosh shaxsga tayanib yozuvchi obraz yaratadi. Isajon Sulton ham tarixiy shaxsga tayanib Alisher Navoiy obrazini qayta yaratadi va yangi “Alisher Navoiy” romanini yozadi.

Adabiyot tarix va zamona materialiga murojaat qilishiga ko‘ra quyidagi obrazlarni vujudga keltiradi: Yozuvchi «tarix orqali zamonaning ichiga kirsa» (A.Tolstoy), tarixda bo‘lib o‘tgan voqelikni obrazlarda gavdalantirsa, ular tarixiy shaxslar obrazi deb yuritiladi.

Badiiy asar qahramonlarini turlarga ajratish mumkindir, lekin ular o‘rtasiga Xitoy devorini qo‘yish tamoman noto‘g‘ridir. Chunki go‘zal va hayotbaxsh bitta obraz (masalan Navoiy)ni — realistik obraz, epik obraz, bosh obraz, ijobiy obraz, tarixiy obraz deb yuritaverish haqiqatga to‘g‘ri keladi. Isajon Sulton ham “Alisher Navoiy” romanida ko‘plab tarixiy shaxslarga murojaat qiladi va tarixiy obrazlar yaratadi. Jumladan, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Pahlavon Muhammad, Sharafiddin Ali Yazdiy, Fazlulloh Abulays, Sayyid Hasan Ardasher, Lutfiy va boshqalar.

Alisherning bolaligi, yoshlik yillari, o‘rta yoshda ko‘rgan-kechirganlari va keksalik pallasidagi foydalar romanda batafsil bayon qilinadi. Jumladan, “Mantiq uttayr” nomli bobida ham yosh Alisher holati: “Bolakayning ko‘ngli go‘yo qaqroq tuproq, bu mo‘jiza kitob esa, go‘yo Zamzam suvi edi. Qalb uni qonib-qonib ichib, o‘ziga singdirib olardi”, - deya tasvirlangan . Shuningdek, yozuvchi yosh Alisher obrazini yaratishda boshqa obrazlardan ham mohirlik bilan foydalangan. Tag‘oyisi Muhammad Ali, shahzoda Husayn, Abu Abdulloh Kulohiy, enagasi Qutb(Qutbiya), Sharafiddin Ali Yazdiy, Lutfiy kabi epizodik obrazlar Alisherning yoshligidan qanday iqtidor sohibi ekanligini ochib bergen. Husayn Boyqaroning bolaligi: “bir yerda tinch o‘tirolmaydigan, yerga ursa ko‘kka sapchiydigan bola edi. Sho‘hligi haddan oshavergach, mudarris Abu Abdulloh Kulohiy Nurmuhammad Atkaga shikoyat qildi...”, - deya tasvirlanadi. Alisher va Husayn Boyqaro suhbatlari ham yozuvchi tomonidan mohirlik bilan tasvirlangan va bu kitobxon ongida do‘stlik tuyg‘ularini uyg‘otadi: “Husayn Mirzo do‘sti bilim va jaholat orasidagi nozik nuqtani darhol topib javob bergeniga kulib yubordi: - Ikkimiz ikki tur lashkar boshida bo‘lar ekanmizda? Siz o‘z qo‘shiningizni so‘z mulkida yoyabering, men esa inson cherigini jang-u jadalga yo‘llay. Har ikkisida ham g‘alaba muqarrar bo‘lsin...” yoki “Husayn Boyqaro Alisher Navoiydan “Pir kim-u, murid kim?” deb so‘rabdi. Navoiy donolik bilan “Pirning tilagi - muridning tilagi bo‘lishi kerak”, deb javob beribdi. Shunda sulton Husayn o‘zining Aqzab laqabli oq otini olib kelishlarini buyurib, aytibdi: - Siz pir, men murid bo‘ladigan bo‘lsam, siz shu otga minasiz, men uni yetaklaymen...” Tarixda bunday hol sira ko‘rilgan emas. Hech bir zamonda shoh shoirga jilovdorlik qilgan emas.

Yozuvchi Husayn Boyqaro obrazini mohirlik bilan tasvirlaydi : “Endigina o‘ttiz besh yoshga kirgan sulton vujudidan kuch-qudrat va g‘ayrat yog‘ilib turardi...”, “Husayn Mirzo tajribali lashkarboshi bo‘lib, g‘alabalarining barchasi uning zukkoligi va donoligi bois edi. Urushga kirmasidan avval yovni puxta o‘rganar, qo‘shinning nima yeb, nima ichishidan to aslahasining turlarigacha, qancha bahodir-u qancha sarbozi borligigacha bilib olar, shuningdek, urushga kiriladigan yerning past-balandi, suvi qay tomonidan ekanigacha taftish qilib, uni o‘z g‘alabasi yo‘lida ishlatardi...”

Navoiyning bolaligidan toki umrining so’nggi kunlarigacha bo‘lgan voqealar tarixiy faktlar bilan yoritilgan bu asarda badiiylik, ifodaviylik yuqori. Bilamizki, yozuvchi «tarix orqali zamonaning ichiga kirsa» (A.Tolstoy), tarixda bo‘lib o‘tgan voqelikni obrazlarda gavdalantirsa, ular tarixiy shaxslar obrazi deb yuritiladi. Alisher Navoiy - tarixiy obraz, roman esa tarixiy shaxslar obrazini yanada chuqr anglashimizga turtki bo‘ladi.

Har qanday yetuk asar yozuvchi qalbining haroratidan, zo‘r hayajoni va kuchli ehtirosidan, butun salohiyatining qudratidan yaratiladi. Yozuvchi qalbi mo‘jizakor xazina sanaladi. Isajon Sulton bu romanni 2016-2020-yillarda yozganligi ko‘rsatilgan. Roman 2021-yilgacha qayta ishlaniб, nashrga tayyorlandi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bu asar va undagi qahramonlar barkamolligi bilan kitobxonning fe’l-atvorini, dunyoqarashini, xatti-harakatini — ruhiy va tashqi olamini o‘zligi bilan boyitadi, poklaydi va eзgulikka, insoniylikka yetaklaydi.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)***

1. *Belinskiy V. Adabiy orzular. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977, 104-105-betlar.*
2. *Isajon Sulton. "Alisher Navoiy" romani . Toshkent : Adabiyot nashriyoti, 2021-yil.*
3. *Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.*